O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 7 - mart 147-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

Viloyat hokimining 2024-yil 29-yanvardagi 44-11-0-Q/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb xisoblash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 9- va 25-moddalariga muvofiq

QAROR QILAMAN:

1. “Unays building” mas’uliyati cheklangan jamiyati 2024-yil 4-martdagi №5-sonli xat orqali murojaat qilib, chet ellik investorlar tomonidan moliyalashtirish o‘z vaqtida amalga oshirilmayotganligini bildirganligi inobatga olinsin.

2. Farg‘ona viloyati hokimining 2024-yil 29-yanvardagi 44-11-0-Q/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**